



“IKKI ESHIK ORASI”ROMANIDA INSON RUHIY HOLATLARINING LEKSIK VOSITALAR ORQALI IFODALANISHI

Sharipova Mahliyo G'ayratovna
TATU FF akademik litsey bo'lim boshlig'i

Annotatsiya. *Ushbu tezisdagi O'tkir Hoshimovning “Ikki eshik orasi” asaridagi inson ruhiy holatini ifodalovchi leksik vositalar xususida fikr yuritilgan.*

Аннотация. *В этой статье рассматриваются невербальные средства выражения психического состояния человека в произведении “Икки эшик ораси” Откира Хашимова.*

Annotation. *This article reflects on the leksik means that represent the human mental state in the work of Otkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”.*


Kalit so'zlar: *implitsit, funktsionallashish, kommunikatsiya, paralingvistika, verbal vositalar, nonverbal vositalar, kinetik vositalar.*

Ключевые слова: *Имплицитный, функционализирование, коммуникация, паралингвистика, вербальные средства, невербальные средства, кинетические средства.*

Keywords: *Implicit, functionalization, communication, paralinguistics, verbal tools, nonverbal tools, kinetic tools.*

Badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tilning tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra erkin jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik hisoblanadi. Badiiy matnda boshqa uslub matnlarida bo'lganidek qat'iy mantiq, soddalilik, tushunarlik, normativlik kabi qonuniyatlarga to'la-to'kis amal qilinmaydi. Unda badiiy tasvir vositalaridan unumli foydalaniladi. Ta'sirchanlik birinchi planga ko'tariladi. Ohangdor, jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladi. Tasvirlanayotgan voqealikka mos musiqa, ichki bir garmoniya sezilib turadi. Insonni ruhan to'liqlantirish, yig'latish, kuldirish, xayolot olamiga yetaklash, o'yga cho'mdirish, estetik tafakkurini shakllantirish, voqea-hodisalarga teran, boshqacha nazar bilan boqishga o'rgatish kabi ko'plab xususiyatlarni o'zida mujassam qilgan.³⁴ Badiiy matnning eng asosiy vazifalaridan biri ta'sirchanlik sanalar ekan, bu ta'sirchanlikka badiiy matn qahramonlarning ruhiy holatlari ifoda qilinishi bilan erishiladi. Qahramonning iztirob chekib, yig'lashi o'quvchini ham to'liqlantiradi, xursand va xushchaqchaq so'zlashi, hazillardan foydalanishi o'quvchining ham kayfiyatini ko'taradi. Demak, matnda qo'llangan lisoniy vositalar qahramonning ruhhiy-hissiy holatini aks

³⁴ Yo'ldoshev M. Badiiy matnning lisoniy tahlili. Toshkent, 2008. -b.36.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS

ettirish orqali ta'sirchanlik ta'minlanadi. Zero, "tilni inson omili bilan o'rganish muammosiga jiddiy e'tibor qaratilayotgan bugungi kunda voqelikning inson psixologik tasavvuri bilan bog'liq holda tilde aks etishi masalasining tahlili ustuvor vazifalardan biridir."³⁵

Badiiy matn qahramonlarining ruhiy-hissiy holatini yaqqol namoyon etadigan vositalardan biri undov so'zlar hisoblanadi. Undov so'z aslida "his-hayajon, haydash, chaqirish kabi ma'nolarni ifodalovchi so'z, mas. tiss, chu, oh, voy"³⁶ ma'nosini anglatadi va bu lisoniy vositalarning lug'aviy ma'nosidanoq ularning his-hayajon, ruhiyat ifoda etishi anglashiladi. Undov so'zlar turlicha va ular ijobiy, salbiy hissiyotlarni, ruhiy holatni ifoda etishga yordam beradi.

Shavkat Qudratovichning rangi gezarib ketdi.

- O'h-ho '! Ja osmondasiz-ku, yigit!.. Gap bunday: uch kunda to'rtinchi qavatni montaj qilib, tomni yopasiz. (7-bet)

O'hho' yoki o'ho' undov so'zi taajjub, hayrat kabi hislarni ifodalaydi³⁷ va ko'proq ijobiy kontekstda qo'llanadi. Lekin keltirilgan misolda o'hho' undov so'zi kinoya, mensimaslik, jahl va g'azabni ifodalab, so'zlovchining salbiy ruhiy holatiga ishora qiladi.

O' yoki o'v undov so'zi, asosan, biror kishini chaqirish ma'nosini bildiradi. O'v undov so'zi, shuningdek, salbiy hissiyotlarni ham ifodalaydi, quyidagi misollarda jahl, g'azabni ifodalash uchun qo'llangan:

Boyagi chol yarq etib menga qaradi. Barkashdek kaftini dadamning iyagi oldida paxsa qilib baqirdi: - O'v, ma'lim! Ko'chada qizim qoldi, och o'tiribdi, desang o'lasanmi? Chol dadamni uradi, deb qo'rqib ketdim. Yo'q, dadam choldan cho'chimadi, ma'yus jilmaydi. - Ko'rib turibsiz, Oqsoqol. Zamon shunaqa: oltinkumush kul bo'lgan, arpa-bug'doy pul bo'lgan. (49-bet)

Pakana kishining jahli yomon ekan. Avval dadamga, keyin cholga rangi o'chib qaradi-da, chopib borib, Oqsoqolga xezlandi. - O'v! - dedi bo'ynini xo'rozdek cho'zib.

Vuy undov so'zi mubolag'ani, hayratni ifodalaydi³⁸ va asosan, ayollar nutqida qo'llanishi bilan farqlanadi:

Mo'rcha burchagidagi liqildoq kursida shamshod taroq bilan sochimni tarab o'tirsam, Zuhra kelin boshimga egildi. - Vuy, - dedi yerga tegib turgan ho'l sochimni kaftiga olib, - yarmisini bering, Robiyaxon. (84-bet)

O'zbek tilining izohli lug'atida E undov so'zining bir necha ma'nolari keltirilgan: ajablanish, taajjub, hayrat ma'nosi; 2. Keyin bilganlik, endi eslaganlik ma'nosini alohida his-tuyg'u bilan ifodalash; 3. Chaqirish, murojaat; 4. Yukl. Ba'zi so'zlar bilan birikib, alohida ta'kidni ifodalash³⁹ i keltirilgan. Shuningdek, bu undov kishining salbiy ruhiy holatini ifodalaganda norozilik, jerkish ma'nolarini ham anglatadi:


³⁵ Лутфуллаева Д. Ассоциатив тилшунослик назарияси. Монография. Тошкент, 2017. Б.4. (140 б.)

³⁶ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4 жилд. Б. 289.

³⁷ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 5 жилд. Б. 195.

³⁸ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 1 жилд. Б. 471.

³⁹ Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдлик. 4 жилд. Б. 16.





MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC
SOLUTIONS

O'zimning tovushimdan o'zim uyg'onib ketdim. Uy ichi g'ira-shira qorong'i, yonimda Kimsan akam o'tirardi. - Nima qildi, Robiya? - dedi do'rillab. - Suv ichasanmi? Tushim hamon ko'z oldimdan ketmas, dadamni yo'qotib qo'yganim alam qilardi. - E! - dedim jerkib. - Suvni nima qilaman?! (64-bet)

Demak, undov so'zlar badiiy matnda qo'llanganda so'zlovchining ichki hissiyotlari, ruhiyatining tashqi ifodasi sifatida xizmat qiladi.

Duo va qarg'ish ifodalovchi lisoniy birliklar ham so'zlovchining ruhiy holatini ifoda qiladi. Duo ko'p hollarda suhbatdoshning xursandligi, tinglovchidan mamnunligini anglatsa, qarg'ish o'ta yuqori darajadagi salbiy hissiy holatni ifodalaydi.

Oyim ikkilanib qoldi. - Rashid abzi o'lsin. Qachon qarasa mast. Mo'rchani kim isitadi? - O'zimiz! - Zuhra kelinning qop-qora ko'zlari ishtiyoq bilan yonib ketdi. (81-bet)

- Kalamush! - dedim yig'lab. - Xumda kalamush bor ekan. Mosh bilan urishtirmoqchi edim. - O'lsin! - Ammam nafasi g'ijillab boshidan ro'molini yulqib oldi. Sochlari yoyilib popuk tangalari jiringlab ketdi. - Kalamush o'la qolsin! Xumni yiqitsangku o'z joyiga ketardi. Otangga nima deyman? Erka bola bo'lsang... 30

Ushbu matn parchasida qo'llangan *O'lsin!*, *Kalamush o'la qolsin!* qarg'ishlari qattiq qo'rquv, hayajon natijasida qo'llangan.

